

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ**

**ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН
ЁНДАШУВЛАР**

**Республика илмий-амалий конференция
материаллари тўплами
2022 йил декабр**

Тошкент 2022

УДК : 378.147

ББК: 74.58

С - 18

Хорижий тилларни ўқитишда инновацион ёндашувлар.. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2022. – 596 бет.

Масъул муҳаррир:

Д.Б.Сайфуллаев - Тошкент давлат шарқшунослик университети Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор

Такризчилар:

В.М.Каримова – психология фанлари доктори, профессор

Ш.Уришов – педагогика фанлари номзоди, доцент

Таҳрир хайъати:

1. Ш.Абдуллаева – “Педагогика ва психология” кафедраси мудири, психология фанлари доктори, профессор

2. К.Садикова – “Педагогика ва психология” кафедраси доценти, б.ф.н

3. Г.Усмонова – “Педагогика ва психология” кафедраси доценти, б.ф.н

4. С.Махкамова – “Педагогика ва психология” кафедраси доценти, п.ф.н

5. Х.Жабборов – “Педагогика ва психология” кафедраси доценти психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

*Тўпладан ўрин олган мақолалар мазмуни ва аниқлиги учун муаллифлар масъул.

Мазкур илмий-амалий конференция материаллари Тошкент давлат шарқшунослик университети Илмий Кенгашининг 2022 йил 2022 йил 3 декабрдаги 4 сон мажлисида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия этилган.

© Тошкент давлат шарқшунослик университети 2022

и значениями. Во всех языках большим семантическим и словообразовательным потенциалом обладают слова, обозначающие части тела, явления окружающего мира (солнце, небо, вода), родственные отношения, названия домашних животных, орудия и предметы домашнего обихода. В исследованных нами выше единицах приведены части тела, что позволяет нам их назвать соматическими сочетаниями.

Повторимся, что преподавание и изучение фразеологизмов с соматическими компонентами представляет наибольший интерес для лингвистики, так как в значительной мере отражает характер образного мышления каждого из этноса. Кроме того, соматические единицы, обладая определенной спецификой, создают определенные трудности при переводе с одного на другой язык. Для адекватного перевода таких выражений прежде всего следует учитывать знания традиций и обычаев народа, выраженные в языке, и искать оптимальные пути их перевода. Причины частого обращения народов к соматическим сочетаниям во фразеологическом отражении действительности объясняется рядом экстралингвистических факторов. Межъязыковые, функционально-смысловые фразеологические эквиваленты могут различаться составляющими их компонентами и особенностями их переосмысления, что требует углубленного изучения в целях успешного преподавания.

Список использованной литературы

- Бельчиков Ю. А. О культурном коннотативном компоненте лексики. М., 1998.
- Гак В.Г. Языковые преобразования. М.: Языки славянской культуры, 1998.
- Молотков А.И., Федоров А.И. / Под ред. Молоткова А.И. - М.: Советская энциклопедия, 1968.
- Телий В.Н. Типы языковых значений: связанное слово в языке. М.: Наука, 1981.
- Фразеологический словарь русского языка. Сост.: Л.А.Войнова, В.П.Жуков, А.И.Молотков, А.И.Федоров / Под ред. А.И.Молоткова. - М.: Советская энциклопедия, 1968. - 544 с. - (ФСРЯ)

YOSHLARGA CHET TILINI NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANIB O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI

M.A.Fayzullayeva - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti 1-kurs magistratura talabasi

Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak.

– deya ta'kidladi, O`zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoyev

Hozirgi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekistonning ta'limini zamon talablariga muvofiqlashtirish kerak. Zamonaviy ta'lim sistemasining asosiy maqsadi, bilim oluvchilarni - yoshlarni nafaqat bilimlar bilan qurollantirish, shu bilan bir qatorda talaba yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallashda, ijobiy va mustaqil yondashishni shakllantirish, ularning mustaqil bilim olish malakalarini, qobiliyatlarini keng ma'noda ochish uchun sharoit, qulayliklar yaratishdan iboratdir. Qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri, yoshlarning bilim olish faoliyati doirasini kengaytirish kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida ularni bilim olishga bo'lgan qiziqishining rivojlanish darajasini oshirishni talab qiladi.

Qiziqtirish bu - shaxsni shakllanishida, faolligini oshirishda zarur bo'lgan eng kuchli quroldir. Qiziqtirishning ta'sirida barcha ruhiy jarayonlar intensiv va kuchli o'tadi, natijada inson faoliyati qiziqarli va samarali bo'ladi.

Shunday ekan yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish uchun avvalo, ularga ta'lim olishiga sharoit yaratish kerak, shundagina natijaga erishish mumkin.

Yoshlarni ilm- fanga qiziqtirishning no'ananaviy usullari:

1-usul. Qiziqishiga qarab tanlov. Bunda talabalar o'zlarining qiziqishi, ehtiyojiga qarab fanlarni tanlashi kerakligi muhim ahamiyatga ega. Bunda talaba o'sha fanga nisbatan qiziqishi ortadi va ko'proq shu fan bilan shug'ullanadi.

2-usul. Uyga vazifalar berilmasligi. Ta'lim oladigan joy, o'qiydigan maskan bu-ta'lim dargohi. Shunday ekan talaba yoki o'quvchi ta'lim jarayonida bor kuch g'ayratini ta'limga bag'ishlab, undan keyin uyda ham davom ettirsa, uydagilarini ham bezovta qiladi. Bu holatda, ikki muhit o'rtasida talaba yoki o'quvchini fanga qiziqishi susayishi mumkin. Shuning uchun uyga vazifa berilmay, uyiga borganida ota-onasini bag'rida o'ynab kulsa, vaqtini o'tkazsa, sayr qilsa, o'zi qiziqqan biror boshqa ish bilan mashg'ul bo'lsa yaxshi natija berishi mumkin. O'quvchi mashg'ulotlarni ta'lim dargohini o'zida bajarsa va ta'lim dargohini o'zida o'z ustida ko'proq ishlasa kerakli natijaga erishishi mumkin.

3-usul. Hamma narsada tenglik. Yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish eng muhim maqsadlarimizdan biri desak adashmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda ba'zi fanlar boshqasiga qaraganda chuqurlashtirib o'tilmasligi kerak. Bir xilda o'qitilsa talaba ham har bir fanga chuqurroq yondashadi. Bundan tashqari o'quvchilar bir-biriga taqqoslanmasligi kerak. Bu ham muhim ahamiyatga ega.

4-usul. Individual shug'ullanish. Bu ham talabani qiziqishini oshirishi mumkin. Ya'ni darsni o'zlashtira olmagan talaba yoki o'quvchi bilan individual tarzda shug'ullanish, talabani o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Ba'zi ta'lim dargohida bunday individual shug'ullanish qog'ozda qolib ketmoqda, shuni amaliyotga olib chiqsak, yaxshi samara beradi.

5-usul. Imtihonlarning bo'lmasligi(amaliyot): Ya'ni nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanishi kerak. Sababi o'qituvchi shu vaqtga qadar talaba yoki o'quvchini amaliyotda baholashi kerak. Faqatgina kurs yakunida birgina majburiy standart test o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim maskanlarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. Shuning uchun u qanday fan bo'lmasin, hayotga, amaliyotga bog'lab o'tilsa samarali bo'ladi.

6-usul. Mustaqillik va erkinlik. Ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni o'zlari bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish kerakligiga yo'naltirilishi nazarda tutiladi. Bilimlari hayotga qanday qilib tadbiiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantirish kerak. Va o'quvchi yoki talabani har qanday fikri inobatga olish kerakligi muhim ahamiyatga ega. Yurtimizda yoshlarni fikriga quloq solinadi, ammo ba'zi jabhalarda o'quvchi fikriga umuman e'tibor qaratilmaydi. Ba'zan turli xil sabablarga ko'ra ularni g'oyalari, fikrlari keyinga va yana keying surulib boraveradi. Bunga har xil to'siqlar (hujjat ishlari yoki shunga o'xshash boshqa to'siqlar) sabab bo'ladi. Bu esa biror yangi ish boshlagan yoshlarning ishtiyoqini tushushiga sabab bo'ladi. Bu ishga amalda rioya qilinsa, o'quvchi yoki talabani qiziqishi ortishini ko'rish mumkin. Bundan tashqari talabaga erkinlik ham berish kerak. Uni shuni qilish kerak yoki buni bajarish kerak degan fikrni bermasdan unga erkinlikni ham hadya qilish kerak.

Bundan tashqari bir xil formada talaba yoshlar o'zlarini hotirjam his qilmasligi mumkin. Shuning uchun forma talab qilinmasa maqsadga muvofiq bo'ladi, lekin ma'lum bir me'yorlardan chiqib ketmasligi ham maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayoni noan'anaviy sur'atda faollik bilan muayyan muammoni nazarda tutgan holda, hamda ko'zlangan maqsad va vazifalarga mos metodikani tanlab olib borilsagina ijobiy xususiyatlar kasb etadi. Chet tilini o'rgatishda noan'anaviy mashg'ulotlarni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilarga mustaqil fikrlash, to'g'ri so'zlash, jonivorlar va narsa -buyumlarni to'g'ri nomlash, ularning lug'aviy ma'nolarini sharxlash kabi nutqiy -tafakkuriy ko'nikmalarni, ravon og'zaki nutqni hosil qilishga sabab bo'ladi.

6-sinf ingliz tili "What were you doing?" mavzusida o'quvchi grammatik ma'lumot bilan birga hayotimizning bir qismiga aylanib qolgan uy yumushlari, bolalarning kattalarga munosabatini ham o'rganadilar. Masalan: I was sweeping the yard yesterday (men kecha hovlini supurayotgan edim).

Take the rubbish out (axlatni tashlab kelmoq) Mop the floor (polni artmoq)

Dust the table (stolni changini artmoq) Clean the room (xonani tozalamoq)

Bu o'qituvchini intellektual rivojlanishga yo'naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashga odatlantiradi. Bunday ijobiy ishlar o'qituvchidan, o'z ish faoliyatiga qiziqarli topishmoqlar o'ylash va izlanishga yo'naltiruvchi yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z mashg'ulotlarida qo'llashni taqozo etadi.

Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson bo'lmaydi. Bunda o'qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, muloqotga kirishuvchanlik kabi ijobiy fazilatlari qo'l keladi. Ingliz tilini o'rgatishda noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishda maqsad nima? Afzalliklari nimadan iborat?

1.Noan'anaviy o'qitish eng sodda va qulay usul.

2.O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Vaqtdan yutadi.
6. Qiziqarli o'tadi.
7. Darsni samaradorligini oshiradi.
8. Tafakkurni oshiradi.
9. O'quvchilarni diqqat- e'tiborini tortadi.
10. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. O'quvchilarni ingliz tilida mustaqil fikrlashi uchun eng muhim omillarni sanab o'tamiz:

Birinchiidan, har bir darsda o'quvchi yoki o'qituvchi yoki (darslik) talabi asosida unga berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlashi emas, balki uning yo'llanmasi bilan yangi bilim hosil qilishi, kashf etishi lozim. Bu- fikrlash yordamida bilimga intilishning bosh omilidir.

Ikkinchiidan, darsda o'quvchi sust tinglovchi emas balki izlovchi, qiyoslovchi bo'lishi kerak. Shuning uchun o'quvchi og'zidan chiqqan har bir so'z, fikr uning o'ziniki bo'lmog'i lozim. Bunda o'quvchi bilan boshqa tinglovchilar orasida dars jarayonidagi aloqa - munosabat juda ko'p hollarda og'zaki muloqot, qolaversa bahs tusini oladi. Biz buni 6-sinf ingliz tili "Do you like fairy tales?" mavzusida ko'rib chiqamiz. Ertaklarda yaxshi (good characters) va yomon (bad characters) qahramonlarni uchratamiz. Good character -swallow (qaldirg'och) Bad characters - snake , mosquito (ilon , chivin)

O'quvchilar chivin va ilon obrazida hayotimizdagi ba'zi odob -ahloqsiz insonlarni, qaldirg'och obrazida esa yaxshi tarbiyali, ochiq ko'ngil insonlarni tasavvur qila oladilar va bir-birlari bilan bahs munozaraga kirishadilar. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni erkin fikrlashga, hayotda yaxshi yomonni bilib olishga undaydi va ingliz tilida bilgan so'zlari bilan gap tuza oladilar. Uchinchiidan, o'qituvchining ta'lim oluvchiga beradigan ma'lumotlari mohiyatan bir yo'nalishda bo'lib, lekin shaklan har xil bo'lmog'i kerak. O'quv materiali va topshiriqlarining berilishida bosqichli ketma- ketlik har bir mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish amaliyotining mavzudan mavzuga, sinfdan sinfga murakkablasha borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darsining samaradorligini oshirishni maqsad qilib olgan o'qituvchi noan'anaviy va interfaol usullardan maqsadli foydalansa ta'lim jarayonining takomillashuviga olib keladi. Yoshlarni ta'limga, ilm-fanga qiziqitish uchun avvalo o'qituvchining salohiyati yaxshi va kuchli bo'lishi kerak. Shundagina yuqoridagi usullarni ta'limda qo'llasa natija va samara berishi mumkin. Chunki avvalo o'qituvchi talablarga javob berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miraliyeva D. Jahon ta'lim tizimi. O'quv uslubiy majmua. T: Iqtisodiyot 2016

2. Mutalipova M., Imomov M. “Ta’limda ilg’or xorijiy tajribalar” moduli buyicha o’quv-uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017
3. Kizi, F. M. A. Defects And Errors In Language Learning. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1-4.

BOLA CHET TILLARNI O’YNAB O’RGANSIN

S. Sh. Ergasheva -Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti talabasi

Hozirgi kunda chet tillarni o'rganishning bir qancha texnikalari, turli uslublari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning barchasida umumiylik mavjud. Ya'ni agar siz chet tilni qanday o'zlashtirishni so'rasangiz, ushbu yondashuvlarning har birida javob o'xshash bo'ladi - uni muntazam ravishda ishlatish. Shunday qilib, har qanday chet tilini muvaffaqiyatli o'rganishning kaliti bu foydalanishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishga kelsak, agar bola bog'chadan tashqari til bilan aloqador hech narsa qilmasa, u o'rgangan hamma narsani tez orada unuta boshlaydi. Shunday uchun, biz bolalarni imkon qadar tez-tez o'rganadigan so'zlarni sinfdan tashqarida ko'cha-ko'yda, uyda ham ishlatishga undashimiz kerak, chunki har qanday tilni o'rganishning eng yaxshi usuli - undan foydalanishdir. Albatta, bu jarayonda ota-onalar muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, asosiy narsa bolani majburlash emas, balki uni rag'batlantirishdir. Yoshligida bolalar bilimlarni stressiz va bosimsiz muhitda - o'yin orqali o'zlashtirishlari kerak. Shuning uchun chet tilini o'rganish uchun rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish kerak. Bola o'zini xavfsiz va himoyalangan his qilishi va mashg'ulotlardan tashqarida chet tilini o'z ona tilini o'zlashtirgani kabi mutlaqo tabiiy yo'l bilan o'rganishi kerak.

Biz bolani har bir to'g'ri javobi, intilishi uchun maqtashimiz, rag'batlantirishimiz kerak. To'siqlarga duch kelganini payqasak, bolalarni qo'llab-quvvatlab va uni birgalikda yengish muhimdir. Agar bolaning charchaganini his qilsak, dam olishiga va boshqa mashg'ulotlardan zavqlanishiga imkon berishimiz lozim. Oddiy qilib aytganda, chet tilini sinfdan tashqarida o'rganish rasmiy ta'limdan ko'ra ko'proq o'yin kabi bo'lishi kerak.

Bolalarga til o'rgatishning har xil metodikalari mavjud bo'lib. Misol qilib aytganda, oddiy kundalik sharoitda ko'chada, o'qishda yoki uyda chet tilida muloqot qilsak, bola uchun yaxshi natija beradi, ammo bu ko'proq katta yoshdagi bolalar uchun ancha samarali. Chunki ko'p holatlarda bola bunday vaziyatda bu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin.

Bolalar 3 yoshdan boshlab til o'rganishsa, ular uchun bu ancha qulay vaqtdir: bu yoshdagi bolalar xotira va nutq jihatidan ajralib turadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, uning so'z boyligi kam hamda talaffuzga bo'lgan ehtiyoji katta bo'ladi.

Bilamizki, kichik yoshdagi bolalar ko'proq o'yin mashg'ulotlariga qiziqishadi shuning uchun chet tilini o'qitishning eng yaxshi usullaridan biri bu o'yin. O'rgatilayotgan mavzu o'yin tarzida tushuntirilsa yoki takrorlantirilsa, bu bola xotirasida qolishiga ancha yordam beradi.

МУНДАРИЖА

№	Муаллиф, мақола мавзуси	Саҳифа
1	Кириш	3-4
I - ШҶББ: ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ҶҚИТИШДАГИ ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР		
2	Н.Т.Турсунова. Новейшие подходы преподавания иностранных языков.взаимное обучение в японском языке	5-9
3	U.X.Mavlyanova. Xitoy tilini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlari	9-12
4	Н.А.Хаджиева. Қўшимча шарқ тилини ўқитишда янгича ёндашувлар (форс тили мисолида)	12-14
5	Татьяна Витальевна ЦОЙ. Об обучении устойчивых сочетаний в корейском языке	14-17
6	М.А.Файзуллоева. Yoshlarga chet tilini noan'anaviy usullardan foydalanib o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari	17-21
7	S. Sh. Ergasheva. Bola chet tillarni o'ynab o'rgansin	21-22
8	O'А.Erkinova. Xorijiy tilni o'qitishda frazeologik birliklarning o'rni	23-25
9	Saidova.N.I., Boyqobilova.S.F. Xorijiy tillarni o'qitishdagi yangicha yondashuvlar	25-27
10	F.Kh.Tukhtaboeva. Modern methods in teaching foreign laguages	28-31
11	М.Д.Одилова. Анализ культурологических элементов в «Повести о хон гильдоне»	31-35
12	Sh.A.Yangiboyeva. Xorijiy tillarni o'qitishdagi yangicha yondashuvlar	35-39
13	Jo'rayeva Shoxzoda. Maktabgacha ta'lim muassalarida xorijiy tillarni o'qitishning psixologik jihatlari	39-40
14	U.B.Kurbonova., D. R.Umarova. Using innovative ways to teach foreign language	41-43
15	Abdullayev Alisher. Xorijiy Tillarni O'qitishda Pedagogik Yondashuvlar	43-45
16	N.I.Saidova. N.M.Samijonov. Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar	45-51
17	Светлана Родионовна. М.Ш.Шодмонова. Интерактивный подход в обучении корейскому языку с применением видеоматериалов (на продвинутом этапе)	51-56
18	Цой Надежда Даниловна. К вопросу образования и перевода омонимического ряда	56-58
19	Ким Диана Владиславовна. Интерактивные технологии обучения для повышения словарного запаса при изучении корейского языка	58-62
20	Б.Т.Атаджанова., Б.М.Мухаммаджонов. Использование информационных технологий в формировании профессиональной компетенции при изучении иностранных языков	62-65
21	Малика Мухиддинова. К вопросу изучения языка на материале рекламной информации	65-68
22	С.С.Ибрагимова. Структурные, функциональные и творческие особенности русских и узбекских псевдонимов	68-71
23	Фаткулина Луиза Наильевна. Основные практические методы развития письменных и устных навыков японской речи на начальном этапе	71-76

**“ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН
ЁНДАШУВЛАР”**

**Мавзусидаги республика илмий-амалий конференция
МАТЕРИАЛЛАРИ**

Нашриёт литсензияси №

2022 йил 3-декабрда босишга рухсат этилди.

Бичими 60x80 1/6 Times New Roman гарнитураси.

Офсет босма. 28,25 шартли босма табоқ. 39 нашр табоғи.

Адади 10 нусха. 5-рақамли буюртма.

Баҳоси шартнома асосида.